

## OLQISH VA QARG'ISHLARNING SEMANTIK TUZILISHI

**Kabulova Umida Sayidmaxamadovna - ADCHTI**

*Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasи*

**Annotatsiya:** Olqishlar she'riy va nasriy shakllarda bo'lsa-da, na lirik, na epik turga kiritiladi. Shu sababli ular obrazli iboralar kabi paremik turga ham kiritiladi. Obrazli olqishlar paydo bo'lishida metafora, o'xshashlikka asoslangan ko'chim turi poetik o'rni va ahamiyati alohida ko'zga tashlanib turadi. Qarg'ishlarda tana qismlarining nomlari ko'p uchraydi. Fikrimizcha, tana qismlariga yo'naltirilgan qarg'ishlar insonning so'z qudratiga ishonchini bildiradi. Shu taqlidda inson o'zini, asablarini tinchitadi. Chunki yomon maqsaddagi qarg'ish dushmanni yo'q qilish maqsadida aytildi.

**Kalit so'zlar:** *ko'chim, poetik o'rni, sheva elementlari, so'z san'ati, nasriy shakllar.*

**Аннотация:** Аплодисменты, хотя и в поэтической и прозаической формах, не являются ни лирическими, ни эпическими. По этой причине их включают в паремический тип, как и образные выражения. Поэтическая роль и значение метафоры, передачи на основе сравнения особенно заметны в возникновении образных аплодисментов. Названия частей тела часто встречаются в ругательствах. По нашему мнению, ругательства, направленные на части тела, свидетельствуют об уверенности человека в силе слова. В этом подражании человек успокаивает себя и свои нервы. Потому что говорят, что плохое проклятие уничтожает врага.

**Ключевые слова:** *миграция, поэтическое место, элементы диалекта, искусство слова, прозаические формы.*

**Abstract:** Applause, although in poetic and prose forms, is neither lyrical nor epic. For this reason, they are included in the paremic type, like figurative expressions. The poetic role and importance of metaphor, simile-based transfer, is particularly noticeable in the emergence of figurative applause. Names of body parts are often found in curses. In our opinion, curses directed at body parts indicate a person's confidence in the power of words. In this imitation, a person calms himself and his nerves. Because a bad curse is said to destroy the enemy.

**Key words:** migration, poetic place, elements of dialect, word art, prose forms.

Har bir xalq tilining milliy-madaniy spetsifikasini o'zida namoyon etuvchi leksik birliklar tizmasidan tashkil topadi. Ularda fikr va nutq, so'z san'ati, so'zlovchi mahorati va til imkoniyatlari munosabati yorqin namoyon bo'ladi. Olqishlarda tarix haqiqati va xalq ijodi donishmandligi ham bo'y ko'rsatadi. Ko'pincha olqish tilida

sheva elementlari, xalq nutq odobi an'analarini ko'rinish turadi. Shuning uchun olqishlar tili ustida kuzatishlar olib borish muayyan til makonida o'sha til tarixini o'rganish uchun ham muhim hisoblanadi. Jumladan, olqishlar tilida ayrim arxaik (qadimgi) ham yangi so'zlar qo'llanib kelishi ham kuzatiladi<sup>1</sup>.

Olgishlar turli nutq vaziyatlari va holatlariga qarab aytildi. Ular struktural-semantik va kommunikativ-pragmatik aspektlarda yuzaga chiqadi.

Olgishlarning ma'no turlariga bo'linib o'rganilishida ularning tilda struktural-funksional xususiyatlarga egaligi yanada yorqinlashadi. Olgishlar tilida milliy-lisoniy belgilar alohida namoyon bo'lib turadi.

Har bir tilda olgishlarning badiiy-mazmuniy strukturasi (shakliy va mazmuniy modellashtirilgani namoyon bo'ladi. Jumladan, ular ko'pincha sodda gap qolipli bo'lib, tarkibidagi so'zlarning mantiqan zaruriy birikkani kuzatiladi<sup>2</sup>.

B.H.Bgajnokovning fikricha, "yaxshi tilaklar (olqishlar) barcha xalqlar orasida mavjud va ular marosim formulalari asosida yuzaga kelib, muloqot qilishda psixologik qulaylik yaratishga xizmat qiladi"<sup>3</sup>.

Olgishlar yo monologik, yo dialogik shaklda aytildi. Olgish matnlarida turli badiiy vositalar fikrni ixcham va obrazli ifodalashga, tinglovchi qalbida tez hiskechinma uyg'otishga xizmat qiladi. Bu jihatdan ularda uchrovchi sinonimiya va antonimiya hodisalari ham e'tiborni tortadi. Olgishlar she'riy va nasriy shakllarda bo'lsa-da, na lirik, na epik turga kiritiladi. Shu sababli ular obrazli iboralar kabi paremik turga ham kiritiladi. Obrazli olgishlar paydo bo'lishida metafora, o'xshashlikka asoslangan ko'chim turi poetik o'rni va ahamiyati alohida ko'zga tashlanib turadi. Shuning uchun olgishlarning aksariyati tilida metafora katta o'rin tutadi. Olgishlarda graduonimiya ham yorqin kuzatiladi. Ya'ni ularda fikr rivojlantirib, bir gapning ma'nosini ikkinchisining ma'nosidan kuchayib boradi. Masalan: "*Xudojonim yorlaqasin, o'zi qo'llasin, mushkullaringizni oson qilib, niyatizingizga yetkazsin!*".

Olgishlarda ham xuddi maqollardagi kabi hukmdan kechinmaga qarab boriladi<sup>4</sup>. Olgish matnida ortiqcha birorta so'z yoki bemaqsad ishlatilgan birorta unsur uchramaydi.

Xullas, olgishlar xalq og'zaki ijodidagi uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan janrlardan biridir. Ularning tarkibida turli diniy e'tiqodlarga, tasavvurlarga xos qatlamlar ko'zga tashlanadi. Olgishlar qadimda mustaqil janr sifatida muayyan bir

<sup>1</sup> Ниязова М. Инглиз ва ўзбек адабиётида олқишиларнинг бадиий-эстетик вазифалари типологияси. – Бухоро, 2022. –Б.13//Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автoreферати//www.buxdu.uz.

<sup>2</sup> Ниязова М. Инглиз ва ўзбек адабиётида олқишиларнинг бадиий-эстетик вазифалари типологияси. – Бухоро, 2022. –Б.14//Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автoreферати//www.buxdu.uz.

<sup>3</sup> Бажноков Б.Х. Очерки этнографии общения адыгов. – Нальчик: Эльбрус, 1983. –С. 232.

<sup>4</sup> Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б. 109.

marosim bilan emas, turli-tuman marosimlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Biroq u qanday marosim bilan bog‘liq holda ijro etilsa-da<sup>5</sup>, hamma vaqt o‘z mustaqilligini saqlab qolgan. Lekin ayni paytda u o‘sha marosimning alohida uzvi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, tilning milliy-madaniy xususiyatlari, eng avvalo, folkorda: maqol, matal va frazeologizmda aks etadi. Qarg‘ish nutqiy janri ham bundan mustasno emas. Qarg‘ish buyruq-istak maylidagi fe’l bilan shakllangan gap orqali ifodalanib, unda yovuz tilaklar bildiriladi. Shu jihatdan, qarg‘ishlar o‘ziga xos guruhni tashkil qilib, mavzuiy va shakliy jihatdan turlichadir. Insonlar qarg‘ishlarni ovoz chiqarib talaffuz qilar ekan, albatta, ularning vaziyatga ta’sir qilishiga ishonadi. So‘zlovchining qahri qattiqligi uning emotsiyal-salbiy tonida, ohangida aks etib har qanday insonning kayfiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbek tilida *ha, onangni ...*, “*padaringga la’nat*”, “*aka bo’lmay ket*”, “*ha, sendaqa opani...*” kabi qarindoshlik terminlari qatnashgan qarg‘ishlar mavjud. Masalan:

*So ‘ngra ikki kaftini tuproqqa to ‘ldirdi-da, dast qaddini ko ‘tardi. – O‘z onangni tanimaysanmi? Tuqqan onangni-ya? Iflos, seni men dunyoga keltirgandim-ku? Endi axlating arib, katta qiz bo ‘ldingmi? Onang senga kerak bo ‘lmay qoldimi?* (Internet materiallari).

Qarg‘ishlarda ishlatiladigan somatik leksika har qanday tilning eng qadimgi qatlamlaridan bo‘lib, tilning universal fondini tashkil qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б. 109.
- 2.Сафаров О., Ўраева Д. Маросим олқишилари ҳақида//Ўзбек маросим фольклорини ўрганишнинг янгича тамойиллари мавзуидаги республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Навоий, 2007. –Б.15– 18.
- 3.Ниязова М. Инглиз ва ўзбек адабиётида олқишиларнинг бадиий-эстетик вазифалари типологияси. – Бухоро, 2022. –Б.14//Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автoreферат
- 4.Бгажноков Б.Х. Очерки этнографии общения адыгов. – Нальчик: Эльбрус, 1983. – С. 232.

### Axborot resurslari:

1. [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz).

<sup>5</sup> Сафаров О., Ўраева Д. Маросим олқишилари ҳақида//Ўзбек маросим фольклорини ўрганишнинг янгича тамойиллари мавзуидаги республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Навоий, 2007. – Б.15– 18.